

Abduxamid Umarov

*Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
“Ijtimoiy fanlar va informatika” kafedrası
professori, iqtisod fanlari nomzodi
E-mail: dumarovasumarov@gmail.com*

MADANIYAT VA SAN'AT OLIY MAKTABLARIDA “ART TA'LIM” SIFAT VA SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy ta'lim va san'at muassasalarida ijodiy muhitni samarali tashkil etish, madaniyat va san'at oliy maktablarida “art ta'lim” sifat va samaradorligini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada Art ta'limni sifatli tashkil etish metodlari keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy ta'lim, art klaster, ijodkor, madaniyat, san'at, metodlar, sifat ko'rsatkichi.

IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF “ART EDUCATION” IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF CULTURE AND THE ARTS

Abstract. This article explores the effective organization of a creative environment in institutions of art education and examines issues related to improving the quality and effectiveness of “art education” in higher schools of culture and the arts. It comprehensively presents methods for ensuring the high-quality implementation of art education.

Keywords: art education, art cluster, creative professional, culture, arts, teaching methods, quality indicators.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot yo'nalishida, jadal rivojlanish mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy modernizatsiya qilishni amalga oshirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar shaxsga, jamiyatni sifatli yangilashga tizimli va izchil investitsiyalar kiritish orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, davlatning

madaniy siyosati negizida ta'kidlanganidek, O'zbekistonning kelajagi uchun xavfli bo'lgan ijtimoiy inqirozning mumkin bo'lgan ko'rinishlariga quyidagilar kiradi:

- 1) jamiyatning intellektual va madaniy darajasining pasayishi;
- 2) umume'tirof etilgan qadriyatlarning devalvatsiyasi va qiymat yo'nalishlarining buzilishi;
- 3) agressiya va murosasizlikning kuchayishi, noturg'un ijtimoiy xatti-harakatlarning namoyon bo'lishi;
- 4) jamiyatning avtorizatsiyasi: ijtimoiy aloqalarning buzilishi (do'stona, oila, mahalla), o'sish individualizm, boshqalarning huquqlarini mensimaslik. Bunday jamiyatda kuzatilayotgan ijtimoiy inqirozlarning eng samarali yechimi esa, jamiyatni ilm va ma'rifat orqali qo'llab quvvatlash sanaladi.

Ijtimoiy inqirozning namoyon bo'lishini bartaraf etish, jamiyatning yuqori sifati, uning fuqarolik birligi, aniqlash qobiliyati va madaniy muammolarni hal qilmasdan umumiy rivojlanish maqsadlariga erishish mumkin emas. Milliy taraqqiyot mafkurasini shakllantirmasdan turib, axloqiy, etik va ma'naviy jihatdan mustaqil fikrlovchi, ijodiy va badiiy tafakkurni [4] shaxs ma'naviyatini rivojlantirmasdan taraqqiy etib bo'lmaydi.

Demak, badiiy ta'lim bu san'atning eng yuksak qirralaridan biri bo'lib, xilma-xil va boy chiroyli tasvirlar, ijod parvozi va shu bilan birga hayot va borliqning ma'nosini anglash istagi, bu insonning ijodiy energiyasining ajoyib konsentratsiyasi anglatadi.

Bugungi kunda biz san'at deb ataydigan asarlar qadim zamonlardan beri inson hayotida mavjud bo'lgan chiroyli tasvirlar, haykallar, arxitektura inshootlari, hatto uy-ro'zg'or buyumlari, ko'p ming yillar davomida insoniyatning badiiy merosi sifatida inson hayotida mavjuddir [8].

Davlatning ijtimoiy va madaniy-ma'naviy siyosati eng muhim ijtimoiy g'oyalar va qarashlarni anglab etishdan boshlanadi [1]. Xalqning yuksak taraqqiy etgan madaniyatini yangi avlodlarga etkazish vositasi sifatida, milliy o'ziga xoslikning asosini tashkil etuvchi axloqiy tamoyillar to'plami-axloqiy qadriyatlar

sifatida namoyon bo'ladi. Jahonda badiiy pedagogikaga ustuvorlik berish asosida o'quvchilarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirish, art-ta'lim vositasida ta'lim oluvchilarda badiiy-estetik madaniyatni shakllantirish global va tinchlik uchun ta'limning konseptual asoslari sifatida e'tirof etilmoqda.

Xalqning o'z madaniy tarixini aks etuvchi ma'naviy tadbirlarda ishtirok etishi insonga asosiy axloqiy ko'rsatmalar, tarix va urf-odatlarga, xalqlarimizning ma'naviy asoslariga hurmat va ehtirom ko'rsatish orqali amalga oshadi [4]. Bu borada xalqning milliy madaniyati va badiiy san'at asarlari tahlili, ularning millat taqdirida qadrlanishi va soha mutaxassislarining iste'dodi, qobiliyatini ochib berish uchun keng imkoniyat sifatida e'tirof etiladi.

Badiiy ta'limni o'qitishda sifatli ta'lim muammolari, uning qadriyat darajasidagi ahamiyati va tizimli tabiati, o'zbek xalqining dunyoqarashi, mentaliteti dastlab ma'naviyat bilan bog'liq bo'lib [6], o'zbek xalqi falsafiy dunyoqarashi, madaniyati yaratuvchilari tomonidan ochib berilgan.

Bu borada o'z milliy tarixini yoritishda MDH olimlari ham tadqiqot ishlarini olib borgan bo'lib, ular ichida Rus badiiy ta'limini o'rgangan I.A.Ilyin sifatli ta'lim deganda-hayotning barcha siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, tarbiya va kasbiy faoliyat jabhalarini samarali rivojlantirish haqida g'oyalarni ilgari suradi. Sifatli ta'lim bu xodimning asosiy xususiyati va iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tushunadi.

A.M.Moiseyev maktab ta'lim sifatini "maktab o'quvchilarining, jamiyatning, mijozlarning ta'lim ehtiyojlarini qondira oladigan ta'lim natijalarining muhim xususiyatlari va xususiyatlari to'plami" sifatida talqin etadi.

Ta'lim sifati bu – o'quvchining davlat ta'lim standartlariga, milliy o'quv dasturiga mos ravishda davlat talablariga va ehtiyojlariga muvofiqligi darajasini ifodalovchi ta'lim faoliyati, ta'lim faoliyatini amalga oshirishning kompleks tavsifi. Sifatli ta'limni ta'minlash esa rejalashtirilgan va amalga oshiriladigan, doimiy nazorat qilish mumkin bo'lgan faoliyat turlari sifatida e'tirof etiladi.

Madaniyat va san'at ta'limi tashkilotlarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy pedagogika, art menejmenti va madaniy-ma'rifiy siyosatning kesishgan nuqtasida joylashgan dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Badiiy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining mazmuni, pedagogik metodlar, ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari va sifatni nazorat qilish tizimi art klasterining o'zaro integratsiyalangan murakkab tizim sifatida qaraladi.

Art ta'limni rivojlantirishda madaniyat va san'at ta'limi tashkilotlarida o'quv dasturlarining milliy o'quv dasturiga binoan kompetensiyasi talablar bilan mosligi, pedagoglarning metodik tayyorgarligi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi hamda sifat monitoringi mexanizmlarining samaradorligi bilan bog'liq jihatlari mavjud[10]. An'anaviy yondashuvlar ko'proq tajriba asosida shakllangan bo'lib, klaster yondashuv ilmiy asoslangan baholash indikatorlari va integrallashgan sifat nazorati tizimiga ehtiyoj seziladi.

Ta'lim sifatini aniqlash, baholash va rivojlantirish bo'yicha ko'plab nazariy yondashuvlar mavjud. Masalan, Project Zeroning "Qualities of Quality" [2] dasturida san'at ta'limida sifatli o'quv tajribasi nima ekanligi, o'qituvchi, o'quvchi, muhit va pedagogik jarayonlar nuqtayi nazaridan aniqlanadi. Bu tadqiqot san'at ta'limi tizimida sifatni baholashga ham pedagogik, ham muhit-iqtisodiy jihatdan yondashish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, san'at ta'limi sifatini baholashda o'ziga xos kriteriyalarning: intellektual rivojlanish, kreativlik, kommunikativlik kabi mezonlar zarurligi ta'kidlangan.

Zihao Lining: Quality Assurance for Performing Arts Education: A Multi-Dimensional Analysis Approach [7] maqolasida yuqori ta'lim muassasasida san'at ta'limi sifatini baholash uchun ko'p o'lchovli tahlil (multi-dimensional analysis) qo'llanilgan bo'lib, bunda art yo'nalishida tahsil olayotgan talaba kursi baholari, o'qituvchi reytingi, kurs tuzilishi va talabaning sa'y-harakatlari asosida xulosalar chiqarilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, san'at va madaniyat ta'limi tashkilotlarida sifat va samaradorlikni o'rganishda kvantitativ va sifat(qualitative) usullarni

integratsiyalash muhim ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Badiiy ta'lim tashkilotlarida nazariy va empirik tadqiqotlar olib borishda klaster yondashuvning qo'llanishi, uzluksiz ta'lim tashkilotlarining samarali integratsiyasini aks etadi. Bunda so'rovnomalar, testlar, baholash ma'lumotlari yig'ish – talabanning ijodiy natijalari, ishtirokchilik darajasi, o'qituvchi reytinglari, muassasa resurslari va boshqalardan keng foydalanish mumkin.

Zamonaviy ta'lim tizimi innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, badiiy ta'lim (ART ta'lim) sohasida ta'lim jarayonini integratsiyalash [5], moduli asosda tashkil etish va ijodiy muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyat va san'at oliy maktablarida klaster yondashuv vositasida "ART ta'lim" ni tashkil etish bu borada samarali usullardan biri hisoblanadi.

Klaster bu – o'zaro bog'liq tashkilotlar, ta'lim muassasalari, ijodiy markazlar, san'atkorlar va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorlikda ish yuritish tizimidir. Ta'limdagi Klaster modeli san'at, madaniyat va ta'limni birlashtiruvchi kompleks platforma sifatida faoliyat yuritadi.

ART ta'lim klasteri ta'lim, tarbiya va ijodiy o'sishni muttasilligini ta'minlaydigan uzviy bog'langan muassasalar va ishtirokchilar hamkorligini nazarda tutadi. Bunda bolalar bog'chasidan to oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda badiiy ta'limni samarali va sifatli taraqqiy ettirish bilan birga gorizontaal yo'nalishda takomillashtirish mumkin [3]. Madaniyat va san'at oliy maktablari badiiy ijodni takomillashtirish va rivojlantirish maskanlari sifatida muhim ahamiyatga ega.

Bu borada "ART ta'lim"ni Klaster vositasida tashkil etishning ham samarali va asosiy metodlari [1] mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Modulli integratsiyalashgan o'quv dasturlarini joriy etish orqali badiiy ta'limning turli yo'nalishlarini (rassomlik, musiqa, dizayn, teatr va h.k.) umumiy konsepsiya asosida bog'lash, san'atning soha yo'nalishlari bo'yicha integratsiyasini tashkil etish imkonini beradi.

2. Boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim darajalarida bir-birini to'ldiruvchi dasturlarni ishlab chiqish. Respublika miqyosidagi barcha badiiy ta'lim

muassasalarida rassomlik, dizayn va amaliy san'at yo'nalishlaridan kelib chiqib, Steam fanlari misolida fanlararo bog'lanishlarni tashkil etish va amaliyotda qo'llash ham eng kerakli natijalarni beradi.

3. Kooperativ ta'lim modellaridan foydalanish. Bunda Klaster yondashuvning eng asosiy tamoyili bo'lgan, ta'lim, ijod va biznes sohasini integratsiyalash, ularning uzviyligini ta'minlovchi badiiy kechalar, amaliy va tasviriy san'at yarmarkalarida barcha ijod sohasi mutaxassisining hamkorlikdagi ishtiroki orqali yaratilgan badiiy ijod mahsulotlarini ochiq tomoshabinlar e'tiboriga havola etish bilan birga, talab va taklif qonunini rivojlantirish.

4. Ta'lim muassasalari va ijodiy tashkilotlar o'rtasida shartnomalar asosida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Ijodkorlar va ishlab chiqaruvchilarning samarali hamkorligini yo'lga qo'yish.

5. San'atkorlar, dizaynerlar va musiqashunoslar ishtirokida master-klasslar, seminarlar tashkil etish. Nazariy olinayotgan bilimlarni aniq, ma'lum bir maqsadlar va holatlarda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

6. Ijodiy laboratoriya va mahalliy resurs markazlarini tashkil etish, soha bo'yicha mutaxassisi bo'layotgan yoshlarni bir hududda yig'ishga qaratilgan bo'lib, har bir hududda badiiy ta'limga ixtisoslashgan Klaster markazlari (studiya, galereya, teatr maktabi) yaratish orqali amalga oshadi. Bunda badiiy ta'lim va san'atning keng turlari bo'yicha amaliy mashqlar olib boriladi.

7. Bolalar va yoshlar uchun to'garaklar, ijodiy ekspeditsiyalar tashkil etish. Bunda biz an'anaviy, jonli mahorat maktablarini tashkil etish bilan birga, virtual ART platforma orqali multimedia resurslar, videodarslar, onlayn ko'rgazmalar tashkil qilib ham katta samaraga ega bo'lishimiz mumkin.

8. Raqamlashtirish va onlayn ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida, talabalar uchun elektron Portfolio va interaktiv ta'lim tizimlarini ishlab chiqish. Hozirgi vaqtda respublikaning barcha jabhalarida keng taraqqiy etib kelayotgan, axborot texnologiyalarining taraqqiyot natijalaridan keng foydalanish.

9. Steytxolderlar (ish beruvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari) bilan hamkorlikni kuchaytirish asosida Art Klaster subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni yanada barqarorlashtirish. San'at sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar bilan tajriba almashinuv orqali hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularning mehnat faoliyatini barqarorlashtirishga erishish.

Klaster faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari va badiiy kompetentlikni namoyon etish ko'rsatkichlar tizimini joriy etish asosida badiiy kompetensiyalar rivojini baholovchi diagnostik instrumentlardan foydalanish san'at sohasi ijodkorlarini sifatli ta'limini kafolati va garovi shaklida namoyon bo'ladi.

Quyidagilarni ta'kidlash mumkinki, uzluksiz ta'lim tizimida ART ta'limni Klaster vositasida tashkil etish bu – ta'lim, san'at va ijtimoiy hamkorlikni birlashtiruvchi innovatsion yondashuvdir. Bunday tizim ijodkor avlodni shakllantirishda, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Samarali Klaster modellari orqali nafaqat ta'lim, balki madaniy siyosat, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy imkoniyatlar ham rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lois Hetland, Patricia Palmer, Steve Seidel, Shari Tishman, Ellen Winner *The Qualities of Quality: Understanding Excellence in Arts Education*//Published. 2009

2. Nurtayev U *“Badiiy ta'lim tizimida tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasini uzluksiz va uzviylikni ta'minlash pedagogik muammo sifatida” uzluksiz ta'lim.* 2020.

3. O'zbekiston badiiy akademiyasi huzurida rassomlik mahorat ustaxonasi. (oliy rassomlik kursi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida. 05.04.2021.

4. Umarov A. *Uzluksiz ta'lim tizimida badiiy ta'lim innovatsion klasteri.* “International scientific research conference”. – Belarus: 2022.

5. Umarov A. *Uzluksiz ta'limda zamonaviy san'at maktablarini tashkil etishning Klaster tamoyillari*//ReFocus. – 2022. – №1. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/uzluksiz-talimda-zamonaviy-sanat-maktablarini-tashkil-etishning-klaster-tamoyillari>

6. Zihao Li. *Quality Assurance for Performing Arts Education: A Multi-Dimensional Analysis Approach*//*Applied Sciences*. – 2022. – №12(10):4813.

7. Султанов Х. На пути совершенствования изобразительного искусства в непрерывном образовании: из опыта работы., *academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJiF) 2020: 4.804 Academic Research, Uzbekistan 545 www.ares.uz*

8. Хангельдиева И. Специфика арт-маркетинга: ключевые особенности//*власть социологии*. – 2012. – №3.

9. Maftunaxon K. *Madaniyat va san'at ta'limi tashkilotlarida ta'iim sifati va samaradorligini oshirish*//*Oriental Art and Culture*. – 2025. – №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/madaniyat-va-san-at-ta-limi-tashkilotlarida-ta-iim-sifati-va-samaradorligini-oshirish>

10. <file:///C:/Users/User/Downloads/spetsifika-art-marketinga-klyuchevye-osobennosti.pdf>